

**YOSHLARNI YUKSAK MA'NAVIYATLI, MUSTAHKAM E'TIQODLI
QILIB TARBIYALASHDA MA'NAVIY MERO SIMIZNING AHAMIYATI.**

Yo.Rahimova

*Marg'ilon Pedagogika
kolleji o'qituvchisi.*

Kirish

Hozirgi globallashuv jarayonlarining asosiy maqsadi va muhim jihat shaxsni axborotlar oqimining faol iste'molchisi va o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirishdan iborat.Xususan yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'risida"gi Qonuninig qabul qilinishi va unda inson omili ,shuningdek uzlusiz ta'lim mazmunini zamon talablari doirasida takomillashtirish,yosh avlodni yuksak ma'naviyatli etib voyaga yetkazish uchun yaratib berilayotgan sharoitlar talaygina ekanligi fikrimizning dalilidir.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ham o'zining qator ma'ruzalarida Yangi O'zbekistonni barpo etish eng avvalo ta'lim tarbiya jarayonini takomillashtirishdan boshlanadi degan fikrni berib keladi.Darhaqiqat mamlakatimizni taraqqiy topgan davlatlar qatoriga kiritishni hayotiy maqsadimiz deb belgilasak, bu jarayonda mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlарimizga eng avvalo kitobga bo'lган mehrini oshirish, ular o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilinishi, bu borada bir qancha samarali ishlarni olib borilishi ham muhim ahamiyatga egadir.

Annotatsiya

Ushbu maqola hozirgi kunda Mustaqil O'zbrkistonni barpo etishda ma'naviyatli yoshlарimizning o'rni kattaligi va bu boradagi allomalarimizning ibratli fikrlaridan berib o'tilgan.Prezidentimizni yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi 5 ta tashabbuslari va uning aynan yoshlar orasida kitobxonlikni targ'ib qilish to'g'risidagi fikrlari misollar orqali bayon etilgan.

Jamiyatning kelajagi,tayanchi va ishonchi bu yoshlardir. Mustaqilligimiz qo'lga kiritganimizdan song,O'zbekistonning birinchi Prezidenti tomonidan yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularni haqiqiy ma'noda Amir Temur,Alisher Navoiy kabi ulig' bobokalonlarimizning vorislari etib kamolotga yetkazish maqsadida ulkan ishlar amalga oshirildi.Yoshlarning ilm-fan cho'qqilarini zabt etishlari uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratib berildi.Bugungi kunda ham yoshlарimiz oldiga qo'yilayotgan talab bintta, u ham bo`lsa o'qish,izlanish o`z kuch va imkonyatlarini mustaqillik, ona-yurt ravnaqi uchun namoyon etishdir. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ham bir qator muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Shular jumlasiga Prezidentimiz tomonidan 2019 yil 19-martda taklif qilingan "Yoshlar manaviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5ta

muhum tashabbusni misol qilishimiz mumkin.To`rtinchi tashabbus yoshlar manaviyatini yuksaltirish,ular o`rtasida kitobxonlikni keng targ`ib qilish bo`yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo`naltirilgan.Tarixdan ma`lumki insoniyat yaratgan eng noyob,eng beba ho boyliklardan biri shubhasiz kitobdir.Shu bois ham internet va boshqa kommunikatsiya vositalari jadal rivojlanayotganiga qaramasdan insonning ongu tafakkurini charxlash, ma`naviy olamini boyitish, ezgulikni targ`ib etishda kitobning o`rni saqlanib qolmoqda.Shuning uchun kitob insonlarni ezgulik,saodat manzili tomon yo`llaguvchi va qalbiga nur bo`lib singuvchi tilsim hisoblanadi.Yaxshi kitob bergen ruhiy-ma`naviy ozuqani boshqa hech narsa bilan qiyoslab bo`lmaydi.Biroq ming avsuski, so`nggi yillarda yoshlar o`rtasida insonyatning beba ho manaviy xazinasi sanalmish, qalb ozuqasi bo`lgan kitob mutoalaasi bir oz susaydi, uning o`rnini internet,mobil telefoni va kompyuter o`yinlari o`ynashni afzal bila boshladilar.Dunyo charxpalagi aylanib, mol-dunyo,boylik qo`ldan ketishi mumkin, ammo yaxshi kitobdan olingan ma`naviy quvvat o`z egasini hech qachon tark etmaydi va uni xatolardan, adashishlardan asraydi.Yoshlarni yuksak ma`naviyatlari, mustahkam etiqodli va o`z vataniga muhabbat ruhida tarbiyalashda tabiiyki ma`naviy meroslarimizning o`rni katta.Bunga misol ota-bobolarimizning asrlar davomida to`plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy va adabiy qarashlarini ifoda etadigan “Avesto”kitobini misol qilishimiz mumkin.Ushbu kitobning tub mohiyati “Ezgu fikr,ezgu so`z,ezgu amal”degan tamoilni ilgari suradi.Biz yoshlarimizga va ularni ongiga ezgulikni singdirishimiz va ularning ma`naviy qarashlariga ijobiy tasir ko`rsata olsak maqsadga muofiq bo`ladi.Yoki o`rta asrlarda Xorazm diyoridan olis Arabistoniga borib,arab tili grammatikasini mukammaln tarzda ishlab chiqqan Mahmud Zamahshariy bobomizni esga olaylik. O`zining jismoniy nogironligiga qaramay, dunyoning ko`plab mamlakatlariga mashaqqatli safarlar qilgan, teran bilimli va ilmiy salohiyati bilan butun islom olamini lol qoldirgan bu zot, hech shubhasiz, yoshlarimiz uchun ma`naviy yetuklik timsoli bo`lib qolaveradi. Asosiy maqsadimiz ham bunday ulug`zotlarning

hayot yo`li va qoldirgan merosini to`liq tasvirlash emas, balki ular dan ibrat olishga, ilimli, marifatli bo`lishga o`rgatish biz ziyorilar va butun jamoatchilik uchun ham qarz, ham farz hisoblanadi. Shu orinda buyuk bobolarimizning ma`naviy olami xususida fikr yuritganda sohibqiron Amir Temur haqida alohida to`xtalishmiz tabiiyidir. Buyuk bobomiz shijoat, mardlik va Vatanga sadoqat va mustahkam etiqod ramzi hisoblanadi. Ayniqsa “Temur tuziklar”ni o`qigan har bir yigit va qizlarimiz ular uchun ma`naviy ozuqa bo`ladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekaniga ishonch hosil qiladilar. Yigitlarmiz uchun allomaning qat`iylik, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bo`lishga yonaltirilgan fikrlarining ahamiyati,qiymati hozirgi kunda ham kata ekanligini singdirish muhimdir. Amir Temur bobomizning bunday chuqur ma`noli hikmatlari xalqimizda qadimdan mavjud bo`lgan “ bilagi zo`r birni, bilimi

zo'r mingni yiqar" degan maqolga g'oyat hamohang bo'lib, insonni doimo aql-idrok, adolat va yuksak ma'naviyat asosida yashashga da'vat etishi bilan e'tiborlidir. Bunday noyob va beba ho boylikni har tomonlama chuqur o'rganish, uning ma'no-mazmunini farzandlarimizga yetkazish ishlarini doimiy olib borishmiz kerakligi hozirgi kunning eng muhim talabi hisoblanadi.

O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakilanishga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan ulug' zotlardan yana biri Alisher Navoiy hisoblanadi. Biz uning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boyligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz. Biz aynan yoshlarimizga buyuk ajdodlarimizga hurmat-ehtiromni singdirishimiz, ularning boy ilmiy merosin o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini va kitob o'qishga bo'lgan muhabbatlarini oshrishmiz kerak. O'z farzandlarimizga bunday buyuk ajdodlarmiz bilan faxrlanish, g'ururlanish va ulardan hayotiy ibrat olish tuyg'ularini shakllantirishimiz lozim. Biz bu beba ho merosdan yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, ularda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy quroqla ega bo'lamiz. Hozirda turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirishimiz kerakligini zamonning o'zi ham ko'rsatib turibdi.

Har qanday yangilik ham bir kun eskiradi, biroq insoniyatning ming – ming yillar davomida qolga kiritgan aqliy hamda fikriy durdonalarini o'zida jamlagan kitoblar aslo eskirmaydi. Binobarin, Kitob – hamisha ilm – ma'rifat, manaviyat, odob – axloq manbai bo'lib kelgan va bo'lib qoladi. Yoshlarimizga ham: "Dastavval qolningizga kitobni oling va mutolaalani boshlang, u sizga dunyo hikmatlarni orgatadi, qalbingizni, ma'naviyatingizni odamiylik, etiqod ziynatlari ila bezaydi. Dunyoda kitobdan yaxshiroq do'st, undan – da donishmandroq hamroh yo'qdir " deb qolamiz.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M Tanqidiy tahlil,qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.-T:"O'zbekiston",2017.
2. Ishmuhammedov R.J,Abduqodirov A,Pardayev A. Ta'lilda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T: "Iste'dod",2010.-142 b.
3. O.Hasanboyeva.J.Hasanboyev.H.Homidov. Pedagogika tarixi.T.2004